

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA NUTQ MADANIYATINING O'RNI

Ergasheva Shahlo Po'latovna,
“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrasi katta o'qituvchisi,
Iminahunova Ruxshona Sherzod qizi,
Stomatologiya yo'nalishi 6323-guruh talabasi,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot insituti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya: *Umummadaniyatni belgilovchi asosiy omil hisoblangan nutq madaniyati muammolarini o'rganish O'zbekiston mustaqillikka erishgan, o'zbek tili ana shu mustaqil mamlakatning davlat tili maqomini olgan paytda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Nutq madaniyatining tarixini o'rganish va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarning merosi bilan tanishish.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, ta'lim samaradorligi, nutq, nutq madaniyati, pedagogic madaniyat.*

KIRISH

Odamlar inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan nutq madaniyati masalalari bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Bu davlatlarda Sitseron, Demosfen, Kvintilian, Aristotel kabi nazariyotchilar etishib chiqdi. Eramizdan avvalgi 335 yilda Aristotelning “Ritorika”si yaratildi. O'sha davr sud notiqligining katta namoyandasi Sitseronning “Notiq haqida”, “Notiq”, “Brut” asarlari hozir ham o'ziga xos qimmatga ega. Ularning bu nazariyalari keyinchalik Evropada nutq madaniyatiga bag'ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo'ldi. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti bilan, shuningdek, va'zxonlik, “Qur'on”ni targ'ib qilish, Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Abulqosim Zamaxshariy, Abu Ya'qub Sakkokiy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar tilga, lug'atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

ASOSIY QISM

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining “Geodeziya” asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari



ham shu ehtiyojlarning hosilasidir. Inson nutqi o'z tuzilishi, materialiga ko'ra, rostni ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan "mezon"ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Mantiqning qiyosi (sillogizmi) rostni yolg'ondan ajratish vositasi bo'lib qoldi. Inson nutqida shubhali o'rinlar sezilsa, ma'lum "mezon" yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o'rganmasdan, uni malomat qilganlarga hayron qoladi va ularga achinib: "Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lhovi) va mantiq (logika)ni mutolaa qilganda edi, so'z, zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo'lardi" - deydi.

Ko'rinadiki, Beruniy inson nutqini bir fan doirasida emas, balki bir necha fan (ya'ni grammatika, aruz va logika)lar qo'shiluvi nuqtasida tekshirish g'oyasini ilgari surgan.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosa chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliqi haqida shunday yozadi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya - narsalar) va aksidensiya (hodisalari)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir. Ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz. Hamda nima to'g'ri, nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz".

Beruniy bilan zamondosh bo'lgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham o'zining "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kalitlari") asarida o'sha davr nutq adaniyatining ba'zi bir masalalari, devonxona ish qog'ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan istiloh (termin)lar haqida ma'lumot beradi.

Qadimgi Sharq pedagogikasining durdona asarlaridan biri "Qobusnoma"da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar bayon qilingan bo'lib, ular hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zining butun ijodi bilan o'zbek tili boyliklarini, uning latif va go'zal qirralarini kashf etdi. Keyingi asrlarda ijod qilgan Xorazmiy, Bobur, Munis, Mashrab, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda, Hamza va boshqa buyuk mutafakkirlar ham o'zbek muloqot xulqi haqida o'z fikrlarini turli janrlardagi asarlarida bayon etdilar.

Biroq nutq madaniyati muammolari bilan ilmiy asosda jiddiy shug'ullanish G'arb mamlakatlarida nutqiy muloqot, uning sotsiologiyistik, psixologiyistik va pragmatik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab maxsus jurnallar chiqa boshladi (Language and Communication", "Pragmatic" va boshqalar). So'nggi yillar AQSH olimlari nutqiy muloqot sohasida juda katta tadqiqotlarni olib borayotganlarini aytib o'tish kerak. AQSHda muloqot va ritorika bilan mashg'ul ko'plab ilmiy jamiyatlar va assotsiatsiyalar tashkil topganini va ular o'z ilmiy izlanishlarini chop etib borayotganliklarini eslatish zarurdir.

Bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganishga rus tilshunosligida 20 - 30 yillarda kirishildi.

1977 yilda Moskvada monografiyalarning chop etilganligi, shuningdek, A.A.Leontev, N.V.Ufimseva, Y.A.Sorokin, boshqalarning bu muammoga oid qator monografik tadqiqotlarining yuzaga kelganligi nutqiy faoliyat muammosini tobora dolzarb masalaga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Ahmedov A. Notiqlik san'ati – T.: O'zbekiston, 1967.
2. Allan Piz i Barbara Piz. YAZыk telodvijeniy. – Sankt-Peterburg, 2007.
3. Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati . – T.: Adolat, 2003.
4. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. – T.: Fan,1973.
5. Golovin B.N. Основы культуры речи. – М.,1980.
6. Ibrohimov S. Nutq madaniyati masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti,1964,5-son.
7. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
8. Yo'Lchiyev, Q., & Meliqo'Ziyeva, G. (2023). MARK TVEN ASARLARI VA ULARDA NUTQ SHAKLLARINING QO'LLANILISH USLUBI. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 196-198.
9. Melikuzieva, G. (2024). “THE ADVENTURES OF TOM SAWYER” FORMS OF MONOLOGIC SPEECH. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 673-677.
10. Meliqo'Ziyeva, G. A. Q. (2022). “TOM SOYERNING SARGUZASHTLARI” ROMANIDA MONOLOGIK NUTQ SHAKLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 451-454.
11. Salieva, N. S. (2023). PEDAGOGICAL DEONTOLOGY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 303-310.
12. Salieva, N. (2024). ADVANTAGES OF EDUCATIONAL METHODS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 383-388.
13. Salieva, N., & Saliyev, W. (2023). Essence and content of pedagogical deontology. *Society and Innovation*, 4(1), 110-112.
14. Салиева, Н. С., & Камаева, В. (2023). ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕОНТОЛОГИИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(2), 178-180.
15. Salieva, N. (2023). DEVELOPMENT OF GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN. *Miasto Przyszłości*, 43, 135-138.
16. Шайзакова, Н. С., & Махамманова, М. Х. (2018). АРТ-ПЕДАГОГИКА КАК ЭФФЕКТИВНОЕ СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (11), 118-120.
17. Shayzakova, N. S. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA БАДИЙ-ЭСТЕТИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *О 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O 'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI*, 392.
18. Shayzakova, N. (2019). TO THE QUESTION ON ART-AESTHETIC DEVELOPMENT OF CHILDREN OF THE SENIOR PRESCHOOL AGE ON THE BASIS OF SOCIAL-CULTURAL TRADITIONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
19. Шайзакова, Н. С. (2020). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ БАДИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНТИРИШ ШАКЛИ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 6).
20. Шайзакова, Н. (2021). ВОПРОСЫ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ НА РАННЕМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЕЗ



- СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТРАДИЦИИ. In *МОЛОДЁЖЬ, НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp. 90-92).
21. Ахмедова, У. Э. (2018). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. *Инновации в образовании и медицине. Материалы V Все*, 18.
 22. Ахмедова, У. (2023). DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH IN MEDICAL STUDENTS IN THE RUSSIAN LANGUAGE CLASSES IN A MEDICAL UNIVERSITY. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 308-315.
 23. Ахмедова, У. Э. (2018). ЗНАКОМСТВО С ЛЕКСИЧЕСКОЙ СИНОНИМИЕЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА. *10.00. 00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*, 13.
 24. Ахмедова, У. Э. (2023). КУЛЬТУРА РЕЧИ СТУДЕНТОВ И ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 4(1), 47-51.
 25. Ахмедова, У. Э. (2021). Сходства и различия между предложениями русского языка и окончаниями узбекского языка (на примере употребления с существительными). *Молодой ученый*, (10), 220-222.
 26. Sobirovna, T. O. (2023). INTERACTIVE METHODS OF TEACHING LATIN TO STUDENTS. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 4(1), 42-46.
 27. Odina, T. (2023). DEVELOPMENT OF THEORETICAL MEDICAL KNOWLEDGE. *Miasto Przyszłości*, 42, 652-660.
 28. Туйчиева, О. С. (2020). ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ. In *Университетская наука: взгляд в будущее* (pp. 850-853).
 29. Tuychiyeva, O. (2024). MEDIEVAL IRANIAN MEDICINE. ABU BAKR RAZI. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 536-543.
 30. Туйчиева, О. С. (2018). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ. *Инновации в образовании и медицине. Материалы V Все*, 107.
 31. Анваров, А., & Ирискулова, Ф. (2023). ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТИББИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Engineering problems and innovations*.
 32. Anvarov, A. (2024). THE PROCESS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN ADDITION TO COMBINING THE KNOWLEDGE OF SUBJECT ON THE BASIS OF COMMUNICATION. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 389-395.
 33. Anvarov, A. U. (2021). The role of information technologies in the study of foreign languages. *Young scientist*, (14), 356.
 34. Anvarov, A. U., & Kostiouchkina, O. M. (2023). Psychological and pedagogical bases of professional training of specialists in a foreign language.
 35. Анваров, А. У., & Шербекоев, Н. (2021). Использование медицинских терминов английского языка в медицине Узбекистана. *ББК 72я43 (4Белл+ 5Кум) Н76*, 81.



36. ГАНИЕВ, М. М. (2022). Гендерное равенство в Узбекистане. *МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый"*, (39), 183-185.
37. Ганиев, М. М. (2022). Русский язык–язык межнационального общения. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(9), 103-106.
38. Ганиев, М. М. (2023). ВЛИЯНИЕ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ НА ЗДОРОВЬЕ. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(12), 426-430.
39. Ганиев, М. М. (2023). ПРЯМОЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ИЛИ ОТРИЦАТЕЛЬНОЕ ДЕЙСТВИЕ СЛОВ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(9), 64-71.
40. Ганиев, М. (2020). Внедрение информационно-коммуникативных технологий в образовательный процесс как средство развития интеллектуальных способностей учащихся. *Молодой ученый*, (11), 161-163.
41. Abdulkarimov, N. M. (2022). ORTHODONTIC TREATMENT OF PATIENTS WITH PERIODONTAL DISEASES. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 3-6.
42. Isakovich, K. K. (2023). ARTISTIC AESTHETIC ISSUES IN THE CREATION OF ABDULLA KADIRI. *SCIENCE AND INNOVATION*, 142.
43. Qosimov, K. (2023). ABDULLA QODIRIY–XX ASR GENIYSI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 162-162.
44. Ergasheva, S. P. (2018). PRINTING ACTIVITIES AS A PRAGMALINGUISTIC FUNCTIONAL MEANING. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (8), 78-80.
45. Ergasheva, S. (2019). CRITERIA FOR THE EDUCATIONAL PROCESS IN FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE MEDICAL PERSONNEL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
46. Pulatovna, E. S. (2021). Pedagogical conditions for the formation of communicative competence of students of medical higher education in the process of preparation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1596-1602.
47. Rasulovna, K. M., & Pulatovna, E. S. (2020). Modernization of creative competence of students in medical higher educational institutions. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1), 1721-1733.
48. Ergasheva, S. (2024). STANDARDS OF LITERARY LANGUAGE AND SPEECH CULTURE. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 682-686.
49. Абдукаримов, Н.М. (2023). АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ При ИЗУЧЕНИИ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ПАТОЛОГИЙ. *Международный междисциплинарный журнал исследований и разработок*, 10(12).
50. Абдукаримов, Н. М., & Джалилова, Ю. (2021). Этиология и патогенез пародонтита.
51. Абдукаримов, Н. М., & Мухиддинзода, Д. (2021). Профилактика стоматологических заболеваний основная актуальная проблема современной стоматологии. ББК 72я43 (4Беил+ 5Кит) Н76, 73.

